

## DINIY EKSTREMIZM VA UNGA QARSHI KURASH USULLARI

Saidov Amirbek Alisher o‘g‘li

Muhammad al-Xozazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali.

**Samatov X.U**

Ilmiy raxbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1537654>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada diniy ekstremizm tushunchasi, uning kelib chiqish sabablari, jamiyatga ta’siri hamda unga qarshi kurashishning samarali usullari tahlil etilgan.

Muallif diniy ekstremizmga qarshi kurashda ma’naviy-ma’rify ishlarning, huquqiy chora-tadbirlarning, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning va axborot xavfsizligining o’rnini haqida fikr yuritadi. O’zbekiston tajribasi misolida diniy bag’rikenglik va sog’lom diniy muhitni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Maqola diniy masifikuraviy tahdidlarni bartaraf etish yo’llarini izlovchi ilmiy-ommabop manba sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Diniy ekstremizm, radikalizm, ma’naviy tahdid, yoshlar tarbiyasi, zo’ravonlik, ma’rify ishlar, huquqiy chora-tadbirlar, O’zbekiston tajribasi, diniy savodxonlik, axborot xavfsizligi.

## РЕЛИГИОЗНЫЙ ЭКСТРЕМИЗМ И МЕТОДЫ БОРЬБЫ С НИМ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается понятие религиозного экстремизма, его причины, влияние на общество и эффективные методы борьбы с ним.

Автор анализирует роль духовно-просветительской работы, правовых мер, социально-экономических реформ и информационной безопасности в противодействии экстремизму. На примере Узбекистана изучаются усилия по формированию здоровой религиозной среды и продвижению идей религиозной толерантности. Статья может служить научно-популярным источником для изучения идеологических угроз и путей их предотвращения.

**Ключевые слова:** Религиозный экстремизм, радикализм, духовная угроза, воспитание молодежи, насилие, воспитательная работа, правовые меры, узбекский опыт, религиозная грамотность, информационная безопасность.

## RELIGIOUS EXTREMISM AND METHODS OF COMBATING IT

**Abstract.** This article explores the concept of religious extremism, its root causes, its impact on society, and effective methods for combating it. The author examines the role of spiritual education, legal measures, socio-economic reforms, and information security in countering extremism. Using Uzbekistan’s experience as a case study, the article highlights efforts to promote a healthy religious environment and religious tolerance. The article serves as a scholarly and practical source for understanding ideological threats and strategies to counter them.

**Keywords:** Religious extremism, radicalism, spiritual threat, youth education, violence, educational work, legal measures, Uzbek experience, religious literacy, information security.

## Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida dunyo bo‘ylab turli mafkuraviy qarashlar, ijtimoiy-siyosiy oqimlar va diniy harakatlar faoliyat olib bormoqda. Ularning ba’zilari insonparvarlik, tinchlik va barqarorlikni targ‘ib qilsa, ayrimlari esa mutaassiblik, zo‘ravonlik va adovat g‘oyalarini yoyishga urinmoqda. Ayniqsa, diniy ekstremizm dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan asosiy tahdidlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ham bu boradagi xavf-xatarlarga qarshi qat’iy siyosat yuritib, yoshlarni bu illatdan asrashga harakat qilmoqda. Mazkur maqolada diniy ekstremizm tushunchasi, uning sabablari, jamiyatga salbiy ta’siri va unga qarshi kurashish yo‘llari tahlil qilinadi.

## ASOSIY QISM

**Diniy ekstremizm** – ba’zi diniy tashkilotlar yoki asosan ayrim dindorlarning jamiyat qonun-qoidalariga mos kelmaydigan mafkurasi va faoliyati. Diniy ekstemizm ko‘pchilik dinlarda mavjud bo‘lib, uning tarafdoqlari o‘z oldiga siyosiy maqsadlarni qo‘yadi.

Islom ekstremizmining aqidasiga ko‘ra, birinchidan, go‘yo barcha hozirgi zamон musulmon jamoalari islomiy tuslarini yo‘qotganlar va „Johiliya“ asri jamiyatlariga aylanganlar.

Bunday yondashuv hukumat va uning olib borayotgan siyosatini keskin tanqid qilish uchun „asos“ bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, go‘yo faqat „haqiqiy“ musulmonlar hokimiyatga kelgach, barpo bo‘lajak „islomiy tartib“ni o‘rnatish uchun keskin va agressiv harakat qilmoqlari lozim. Bunday harakatning konunga muvofiqligi masalasi ular tomonidan umuman o‘rtaga qo‘yilmaydi, zero, ular faqat shariatga (bu ham ularning tor talqinida) tayanib ish ko‘radilar va o‘zlarini islomdan chekingan hokimni ag‘darishga guyo haqli deb biladilar.

Islom ekstremizmining „nozik“ tomoni uning „din“ga (haqiqiy dinga emas) asoslanganidadir. Guruh rahbarlari o‘z qo‘l ostidagi a’zolarining ongiga shu darajada ta’sir o‘tkazadilarki, ular hatto o‘zlarini qurban qilishga, muayyan maqsad yo‘lida „shahid“ yoki „kamikadze“ bo‘lishga tayyor turadilar.

„Musulmonbirodarlar“ harakati (Misr, 1928) dan yetishib chiqqan Sayyid Qutb (1906—65) hozirgi zamон islom ekstremizmining g‘oyaviy asoschisi sifatida tan olingan. Uning „nazariya“siga ko‘ra, o‘zini musulmon deb hisoblovchilarning ko‘pchiligi aslida musulmon emas va umuman, barcha davlatlar islomga qarshidirlar. Demak, maqsad – islom davlatini barpo qilish va jamiyatni to‘lig‘icha islomlashtirishdir.

Xristian dinining ba’zi sektalariga asoslangan ko‘plab diniy ekstremistik harakatlar ham mavjud. Ayniqsa, „yahvechilar“, „pyatidesyatniklar“, „tashabbuskor baptistlar“ umuman qonuniy hokimiyat va dunyoviy qonunlarni tan olmaydilar.

Ularning fikricha, go‘yo cherkov davlatdan yuqori. Pyatidesyatniklarning ba’zi guruhlari esa o‘z tobellarini o‘ta shafqatsizlik bilan ado etiladigan ibodatlarga zo‘rlaydilar, dunyo ne’matlaridan voz kechib, tarkidunyochilik bilan yashashga da’vat etadilar.

Diniy ekstremizm yoki ashaddiy akidaparastlik turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Mas, Olsterdagи „ultra“ protestantlar, Yaqin va O‘rta Sharqdagi „musulmon-birodarlar“, Markaziy Osiyo va Kavkazda paydo bo‘lgan vahhobiylar (qarang Vahhobiylirk) va boshqa. Ular jamiyatga va qonunlarga deyarli bir uslubda qarshi kurash olib boradilar.

Diniy ekstremizm – bu diniy e'tiqodlarni noto'g'ri talqin qilish, ularni radikal shaklda targ'ib qilish orqali jamiyatda zo'ravonlik, adovat va g'arazni targ'ib qiluvchi mafkuraviy harakatdir. Bu holat ko'pincha yoshlar orasida keng tarqalgan bo'lib, diniy savodsizlik, ijtimoiy tengsizlik, tashqi ta'sirlar va ma'naviy bo'shliq tufayli yuzaga keladi.

Diniy ekstremizm muayyan ko'rinishda O'zbekistonda ham paydo bo'ldi. Islom ekstremizmi guruhi faoliyati natijasida 1997 yil dekabrda Namangan shahrida bir necha qotilliklar yuz berdi. O'tish davriga xos iqtisodiy qiyinchiliklar, xalqning diniy qarashlarga ta'sirchanligi va diniy urf-odatlarga moyilligidan foydalanib, ekstremistlar ochiqdan-ochiq kuch bilan Farg'ona vodiysida ijro va sud hokimiyatining ayrim vazifalarini o'zlashtirishga harakat qildilar. 1999-yil 16 fevralda Toshkent shahrida yuz bergen voqealar diniy aqidaparastlarning asl maqsadi konstitutsiyaviy tuzumga zarba berish va hokimiyat tepasiga kelish ekanini ko'rsatdi.

Diniy ekstremizmning O'zbekistonga tahdidini aqidaparastlikni yoyish orqali mavjud davlatga ishonchni yo'qqa chiqarishga urinishda kuzatish mumkin. Ekstremistlar jamiyatda erksiz, mute, faoliyatsiz kishilar safini orttirish, „soxta“ va „haqiqiy“ dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshilikni keltirib chiqarishni ko'zlaydilar. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun jangarilarni tayyorlashga ham harakat qildilar. O'zbekistonni G'arbg'a „islomlashtirilgan“, Sharqqa esa, aksincha, „dinsiz“, „daxriy“ shaklda ko'rsatib, respublikaning xalqaro obro'siga putur yetkazish niyatida bo'ldilar. Ular umuman islom sivilizatsiyasi bilan noislomiy sivilizatsiyalar o'rtaida yalpi qarama-qarshilikni kuchaytirish kabi yovuz rejalarini tuzishdan ham qaytmadilar.

2000-yilning kuzida ekstremistlarning O'zbekistonga qurolli hujum uyushtirgani ularning Afg'onistonda in qurib olgan xalqaro terrorchilar va narkobiznes bilan uyushib ketganidan dalolat berdi. Shu munosabat bilan Prezident Islom Karimov: "Bugun dinimizni asrash kerak, mo'min-musulmonlarni ximoya qilish kerak. Lekin dinimizni, birinchi galda, o'zini „chin musulmon“ deb da'vo qilayotgan ana shu yovuz kuchlardan, har qadamda „jihad“ deb og'iz ko'pirtirib, din nomidan buzg'unchilik qilayotgan qonxo'r va qotillardan asrash kerak", – degan edi. Faqat 2001-yil 11-sentabr kuni Nyu-York va Vashingtonda sodir etilgan mudhish terrorchilik hujumlaridan keyingina dunyodagi yetakchi davlatlar AQSH boshchiligidagi bu yovuz illatga qarshi keng miqyosda kurashga bel bog'ladi.

O'zbekistonda diniy ekstremizmga qarshi tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan diniy bag'rikenglik va ma'naviy yuksalish siyosati olib borilmoqda. "Yangi O'zbekiston – yangi ma'naviyat" tamoyili asosida jamiyatda sog'lom diniy muhitni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'rifiy jamiyat o'zi barpo etishga kirishgan tizimning ba'zi xususiyatlarini, qirralarini oldindan tasavvur etishi lozim. Bizning nazdimizda, hozirdan yangi tizimning mohiyatini ochib beruvchi bir qator masalalar ustida bosh qotirishga to'g'ri keladi. Jumladan:

- yangi barpo etilajak tizim qanday bo'ladi?
- unga qanday boshqaruv qoidalari asos etib olinadi?
- u qanday ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanadi?
- uning ijtimoiy-axloqiy tizimida bir guruh aqidaparastlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalarga o'rinn beriladimi?
- eng asosiysi, unga ma'rifiy dunyo qay darajada o'z hissasini qo'sha oladi?

Mustaqillik mamlakatimiz ma’naviy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi: dinga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi; tom ma’nodagi vijdon erkinligi ta’min etildi; diniy bag‘rikenglik hayotiy tamoyilga aylandi; milliy-diniy qadriyatlar tiklandi; diniy tashkilotlar soni oshdi, 10 dan ortiq diniy o‘quv muassasasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillari amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda, hali o‘z yechimini kutayotgan muammolar ham yo‘q emas. 1999 yidagi fevral voqealari, 2004-yildagi 29-30 mart kunlari sodir etilgan qo‘poruvchiliklari ta’lim-tarbiya, targ‘ibot sohasidagi ishimizda nuqsonlar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Ularni bartaraf etish uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, harakat qiiishimiz talab etiladi. Bu yo‘lda bir-biri bilan uzviy bog‘liq muammolami yechishga alohida e’tibor berishda: soglom fikr va dunyoqarashga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash, ulaming salohiyatini yurt osoyishtaligi va xalq farovonligi yo‘lda safarbar qilishga keng imkoniyatlar yaratib berish. - dinning asl insonparvarlik mohiyatini asrash, uning ma’naviy ma’rifiy salohiyatini jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, konvensiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga yo‘naltirish borasidagi ishlarda tadrijiylikni ta’minlashdan iboratdir.

### Xulosa

Diniy ekstremizm jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf tug‘diruvchi mafkuraviy tahdiddir.

Uning oldini olishda faqat davlat organlarining emas, balki butun jamiyat, ayniqsa, oila va ta’lim muassasalarining roli katta. Ekstremizmga qarshi kurashda asosiy qurol bu – ilm, ma’naviyat va sog‘lom tarbiyadir. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, diniy bag‘rikenglik va ma’rifat orqali ekstremizmga barham berish mumkin.

### REFERENCES

1. Hasanov, Ahadjon. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Karimov I. A., O‘zbekisto XXI asr bo‘sag‘sida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, T., 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
4. Sh. Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” – Toshkent, 2022.
5. “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: nazariya va amaliyot”. – Toshkent: O‘zbekiston musulmonlari idorasi, 2021.
6. Komilov A. “Ekstremizm va uning salbiy oqibatlari” – Ma’naviyat, 2020.
7. Raqamli xavfsizlik va yoshlar: maqolalar to‘plami – Toshkent, 2023.
8. Zakrulayev A. G‘oyalari kurashi. - T. Movarounnahr, 2000
9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: 0 ‘zbekiston, 2003
10. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy ma’rifiy asoslari. Toshkent Islom Universiteti - 2005y